

TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI DEPOZIT VA ULARNING HISOBI

Zoirova Nigora Zoir qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda O'zbekiston tijorat banklarida raqamli depozitlar va ularning hisobi tahlil qilinib, uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda zamonaviy tahlil usullari — raqamli bank texnologiyalari, KPI ko'rsatkichlari va byudjetlashtirish mexanizmlari asosida depozitlarning tarkibi, hisob yuritish jarayonlari hamda mijoz segmentlari bo'yicha tahlili amalga oshirilgan. Xususan, depozitlarni raqamli platformalarda segmentlash va hisobini optimallashtirish, shuningdek, ichki audit va byudjetlashtirishni elektron mexanizmlar orqali joriy etish kabi yechimlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, raqamli depozit, depozitlar hisobi, KPI, byudjetlashtirish, raqamli boshqaruv, bank resurslari tahlili, avtomatlashtirish

Kirish

Tijorat banklarida raqamli depozitlarni boshqarish va ularning samarali hisobini yuritish tizimi bank faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, raqamli depozitlardan foydalanish samaradorligini to'g'ri baholash, ularning tarkibi va tuzilmasini chuqur tahlil qilish orqali daromadlilikni oshirish va risklarni kamaytirish mumkin

Raqamli depozitlar hajmi va ularning tarkibi yildan-yilga kengayib bormoqda. Mijozlarning onlayn omonatlari, muddatli depozitlar, talab qilib olinadigan raqamli hisobvaraqlar hamda boshqa turdagi depozit mahsulotlari ko'paygani sari ularni boshqarish xarajatlari ham oshmoqda. Xizmat turlarining kengayishi natijasida operatsion va boshqaruv xarajatlari ko'payib, depozitlardan foydalanish samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu bois raqamli depozitlar samaradorligini baholashda – depozit rentabelligi, foyda bilan ta'minlangan depozitlar ulushi, depozitlar aylanish tezligi, qisqa muddatli likvid depozitlar ulushi kabi indikatorlarni turli faoliyat turlari bo'yicha chuqur tahlil qilish zarur.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, raqamli depozitlarni aniq faoliyat turlari kesimida hisobga olish va baholash tijorat banklari faoliyatida rejalashtirish va nazorat qilish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Xususan, xalqaro amaliyotda depozitlarni turkumlash va ularning rentabelligini baholash orqali bank xizmatlari sifatini oshirish hamda mijozlar ehtiyojiga moslashtirish samarali natija bergan.

Mavzuning dolzarbligi

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundaki, raqamli depozitlardan samarali foydalanishning zamonaviy uslublarini amaliyotga tatbiq etish orqali tijorat banklarida moliyaviy menejmentni kuchaytirish, strategik qarorlar qabul qilish

jarayonini takomillashtirish hamda ko'rsatkichlarga asoslangan boshqaruvni joriy etish imkoniyati yuzaga keladi. Ayniqsa, filial va markaziy apparat darajasida raqamli depozitlar holatini chuqur tahlil qilish orqali samarasizlik manbalarini aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyati mavjud.

Bank depozitlari – tijorat banklarining asosiy jalb qilingan mablag'lari bo'lib, ular bank faoliyatining moliyaviy va operatsion xarajatlari bilan uzviy bog'liqdir. Depozitlar bilan bog'liq xarajatlar tarkibiga mijozlarga to'lanadigan foiz to'lovlari, depozitlarni jalb qilish va boshqarish bilan bog'liq operatsion xarajatlar, axborot texnologiyalari uchun xizmat haqlari, filial va onlayn platformalarni yuritish xarajatlari, shuningdek, mijozlarga xizmat ko'rsatish va hujjatlashtirish bilan bog'liq ma'muriy sarflar kiradi. Depozitlar bo'yicha foiz to'lovlari bank resurslarining qiymatini belgilaydi va bu bevosita bankning foiz marjasi (NIM) hamda depozitlar rentabelligiga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, axborot texnologiyalariga qilingan xarajatlar raqamli omonat xizmatlarining sifatini oshirishi, mijozlar sonini ko'paytirishi va natijada depozitlar aylanish tezligini tezlashtirishi mumkin.

Tijorat banklarida raqamli depozit hisobining yuritilishi

| № | Operatsiya mazmuni | Debet | Kredit | Izoh (mazmuni) |
|----------|--|---|--|---|
| 1 | Mijoz raqamli depozit hisobvarag'iga pul o'tkazdi (mobil ilova yoki internet-banking orqali) | 10010 «Kassadagi naqd pullar» yoki 10301 «Bankning vakillik hisobvaraqlari» | 20009 «Raqamli (onlayn) depozitlar hisobvaraqlari» | Mijoz tomonidan elektron shaklda depozit ochildi va mablag' hisobga olindi |
| 2 | Raqamli depozit bo'yicha foizlar hisoblandi | 8010 «Foiz xarajatlari» | 20009 «Raqamli depozitlar hisobvaraqlari» | Bank mijoz oldidagi foiz majburiyatini hisobga oldi |
| 3 | Raqamli depozit muddati tugab, asosiy summa va foizlar mijozning talab qilib olinguncha hisobga o'tkazildi | 20009 «Raqamli depozitlar hisobvaraqlari» | 19903 «Talab qilib olinguncha pul mablag'lari» | Depozit summasi va hisoblangan foizlar mijozning asosiy hisob raqamiga o'tkazildi |
| 4 | Mijoz raqamli depozitni muddatidan oldin yechib oldi | 20009 «Raqamli depozitlar hisobvaraqlari» | 19903 «Talab qilib olinguncha pul mablag'lari» | Muddatidan oldin yechib olishda depozit mablag'i mijoz hisobiga qaytarildi (ba'zan foizlar kamaytirilgan holda) |
| 5 | Raqamli depozit bo'yicha foizlar naqd pul ko'rinishida to'lab berildi | 20009 «Raqamli depozitlar hisobvaraqlari» | 10010 «Kassadagi naqd pullar» | Mijoz raqamli depozitdan tushgan foizlarni naqd pul shaklida oldi |

Xulosa va Taklif

Xulosa qilib aytganda, raqamli depozit hisobini takomillashtirish va xarajatlarni ABC modeli asosida tahlil qilish bank faoliyatini samaraliroq boshqarish, raqamlashtirish jarayonini optimallashtirish hamda uzoq muddatli barqaror moliyaviy rivojlanishni ta'minlashda alohida ahamiyatga ega.

Raqamli depozit xizmatlarini optimallashtirishning nazariy asoslari o'rganilganda va eng samarali yondashuvlardan biri sifatida Activity-Based Costing (ABC) modeli tanlab olindi. Mazkur metod depozit hisobini yuritish va boshqarishdagi xarajatlarni aniq faoliyat turlariga bog'lash imkonini beradi hamda jarayonlarda notekis taqsimlangan xarajatlarni aniqlashda yuqori aniqlikni ta'minlaydi. Xususan, Khadivar (2024) tomonidan ilgari surilgan ilmiy usullar bank tizimidagi raqamlashtirish jarayonlariga ham muvaffaqiyatli tatbiq etilishi mumkinligi tasdiqlangan.

Amaliy yangiliklardan biri shundan iboratki, raqamli depozit xizmatlari xarajatlarining ABC model asosida tasnifi ishlab chiqildi, ularda yuqori ulushni egallagan faoliyat turlari aniqlandi va kam samarali xarajatlarni qisqartirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Bundan tashqari, markaziy apparat va hududiy filiallar kesimidagi xarajatlarning taqqoslanishi asosida bank ichidagi xarajat samaradorligini baholash modeli taklif qilindi. Bu yondashuv, bir tomondan, depozit xizmatlarining rentabelligini oshirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. ABC modelini to'liq joriy etish. AT Tengebankda raqamli depozit xizmatlari bilan bog'liq xarajatlarni faoliyat turlari bo'yicha tasniflash amaliyotini keng tatbiq etish tavsiya etiladi. Bu yondashuv yuqori xarajatli yo'nalishlarni aniq belgilash, resurslardan samarali foydalanish va depozit xizmatlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

2. Byudjetlashtirish va KPI tizimlarini integratsiya qilish. Raqamli depozit xizmatlari samaradorligini baholashda KPI ko'rsatkichlari xarajatlarni nazorat qilish jarayoniga to'liq joriy etilishi lozim. Ularni byudjet rejalashtirish bilan uyg'unlashtirish orqali xarajatlarni rejalashtirish va natijalarni baholashda shaffoflik ta'minlanadi.

3. Xarajatlar yuritilishida raqamlashtirishni kuchaytirish. AT Tengebankda IT infratuzilmasi va axborot tizimlarini modernizatsiya qilish orqali raqamli depozit xizmatlari bo'yicha xarajatlarni yuritish va tahlil qilish jarayonlarini avtomatlashtirish zarur. Bu nafaqat tezkor nazoratni ta'minlaydi, balki mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmat sifatini ham oshiradi.

4. Ichki auditning rolini kuchaytirish. Raqamli depozit hisoblari bo'yicha ichki audit tizimi samaradorligini oshirish maqsadida auditorlar ABC modeli va KPI

ko'rsatkichlaridan faol foydalanishlari lozim. Bu xarajatlarning maqsadga muvofiqligini baholash hamda moliyaviy nazoratni mustahkamlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1.2020 yil 12 maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga muljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.

3.Omonov, A. A., Koraliev, T. M. Dengi i banki. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. — 412 p.

4.Azizov, U., Karaliev, T., Bobokulov, T. Bankovskoe delo: Uchebnoe posobie. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. — 356 p.

5.Tashxodjaev, M. Korporativ boshqaruvni takomillashtirish. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2014. — 298 p.

6.Jumayev, N. H. Bank ishi va moliya bozorlari. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. — 384 p.

7.Abduraxmonov, Q. X. Iqtisodiyot nazariyasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. — 520 p.

8.King, B. (2018). Bank 4.0: Banking Everywhere, Never at a Bank. London: Marshall Cavendish International.

1. Krishnan, S. (2014). The Power of Mobile Banking: How to Profit from the Revolution in Retail Financial Services. Hoboken: John Wiley & Sons.

2. Tapscott, D., & Tapscott, A. (2018). Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin and Other Cryptocurrencies Is Changing the World (Updated ed.). New York: Portfolio.

3. KPMG. (2022). Fintech and Digital Cost Transformation Report. Available at: <https://home.kpmg>

4. Ministry of Finance of Uzbekistan. (2024). State Budget Execution Report. Available at: <https://www.mf.uz>